

**“H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA  
INSTITUTI” DM HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**HASANOV NO‘MONJON RAXMATOVICH**

**MA‘DANLASHUV ZONALARINI QIDIRISHDA YERNI  
MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARINING  
KOSMOSTRUKTURAVIY VA SPEKTRAL OMILLARI  
(DERBEZ-KO‘KPATOS MAYDONLARI MISOLIDA)**

**04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent 2024**

**Geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
геолого-минералогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on geological-  
mineralogical sciences**

**Hasanov No‘monjon Rahmatovich**

Ma‘danlashuv zonalarini qidirishda Yerni masofadan zondlash materiallarining kosmostrukturaviy va spektral omillari (Derbez-Ko‘kpatos maydonlari misolida).....3

**Хасанов Нумонжон Рахматович**

Космоструктурные и спектральные факторы материалов дистанционного зондирования Земли при поисках зон оруденений (на примере площади Дербез-Кокпатас) .....21

**Khasanov Numonjon Rakhmatovich**

Cosmostructural and spectral factors of Earth remote sensing materials in search of mineralized zones (for examples of Derbez-Ko‘kpatos areas).....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**“H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA  
INSTITUTI” DM HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**HASANOV NO‘MONJON RAXMATOVICH**

**MA‘DANLASHUV ZONALARINI QIDIRISHDA YERNI  
MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARINING  
KOSMOSTRUKTURAVIY VA SPEKTRAL OMILLARI  
(DERBEZ-KO‘KPATOS MAYDONLARI MISOLIDA)**

**04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022/2PhD/GM128 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbekcha, ruscha va inglizcha (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ingeo.uz](http://www.ingeo.uz)) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nurxodjayev Anvarbek Koraxodjayevich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:**

**Razikov Odil Taxirdjanovich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

**Asadov Akmal Ro‘zimurodovich**  
geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “29” noyabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy, Tel: (99871) 262-65-16; faks: (99871) 262-63-81; e-mail: [ingeo@ingeo.uz](mailto:ingeo@ingeo.uz))

Dissertatsiya bilan H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21-raqam bilan ro‘yxatga olingan Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel: (99871) 262-65-16.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “29” noyabr kuni tarqatildi  
(2024-yil “29” noyabrdagi 21-raqamli reyestr bayonnomasi)

**X.D.Ishbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d., professor

**E.M.Amirov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d.(PhD)

**P.S.Sultonov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.-m.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon amaliyotida soʻngi yillarda mineral xomashyo zaxiralari oʻsishini taʼminlash va oʻrnini toʻldirish, geologik qidiruv ishlarini rejalashtirish maqsadlarida raqamli kosmik tasvirlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda qimmatbaho, noyob va kritik metallar xomashyosiga boʻlgan talabning ortayotganligi bois, maʼdanlashuvga istiqbolli strukturalarni qisqa fursatda kam sarf-xarajat hisobiga qidirib topish va ularni mufassal geologik-qidiruv ishlariga tayyorlashda raqamli kosmik tasvirlarni, geologik-geofizik va geokimyoviy maʼlumotlarni statistik va metallogenik tahlil qilish istiqbolli maydonlarni aniqlashda muhim axborot manbasi boʻlib xizmat qiladi.

Jahon miqyosida maʼdanlashuvning geodinamik, tektonik, strukturaviy, magmatik, litologik omillarini aniqlashga xizmat qiluvchi qidiruv belgilarini ajratish bilan bogʻliq bir qator maqsadli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, istiqbolli maydonlarni ajratish, hududlarning bashorat resurslarini aniqlash uchun majmuaviy geologik-geofizik va geokimyoviy maʼlumotlarni raqamli vektorli va rasterli formatlarini fazoviy tahlil qilishda sunʼiy ong boshqaruviga asoslangan tahlil usullariga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikamizning Markaziy Qizilqum hududidagi Bukantov togʻlarida mineral xomashyo bazasini har tomonlama rivojlantirish boʻyicha muayyan tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan geologiya-qidiruv ishlarining bosqichlari qisqartirilib oʻnga yaqin maʼdanli foydali qazilma obeʼktlari ochildi. Oʻzbekiston Respublikasining 2023-2025 – yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish boʻyicha hukumatimiz tomonidan respublikaning istiqbolli hududlarida mintaqaviy miqyosdagi geologiya-qidiruv ishlari “.....Yerni masofadan zondlash, geokimyoviy tadqiqotlar va xaritalash ishlarini jadallashtirish.....”<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, anʼanaviy geologik va raqamli kosmik maʼlumotlarni qayta ishlashning innovatsion usullaridan foydalangan holda, Derbez-Koʻkpatos hududlarida istiqbolli maydonlarni aniqlashga bagʻishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4401-sonli “Yer qaʼrini geologik jihatdan oʻrganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021 – yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori, 2023-yil 27-iyuldagi PF-116-sonli “Maʼmuriy islohotlar doirasida togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2022-2026 – yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasiga kiritilgan “Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilgʻor xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish toʻgʻrisida”gi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-116-sonli “Maʼmuriy islohotlar doirasida togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni.

PF-60 – sonli qarorlari, hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikaning fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VIII “Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)” ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bukantov tog'lari hududining turli miqyosdagi geologik, tektonik, metallogenik, geokimyoviy va kosmogeologik tuzilishi O.M.Borisov, Y.B.Aysanov, A.K.Glux, Sh.E.Ergashev, A.B.Krilov, B.G.Azimov, A.K.Buxarin, S.S.Shuls, F.A.Usmanov, X.A.Akbarov, M.K.Turapov, A.K.Nurxodjayev, M.S.Karabayev, M.M.Pirnazarov, R.X.Mirkamalov, V.S.Burtman, O.T.Zokirov, A.R.Asadov, A.B.Goipov, I.S.Tog'ayev, S.T.Maripova, N.Y.Dulabova, G.R.Yusupov, B.N.Urinov, T.B.Ishboboyev, M.Sh.Moyliyev va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida batafsil bayon etilgan.

So'nggi yillarda raqamli kosmik tasvirlarni qayta ishlash ularning natijalarining geologik ma'lumotdorligini oshirish uslubiyotini yaratish va takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Natijada, mintaqaviy va o'rta miqyosli geologik xaritalash va masofaviy asos xaritalarini tuzish bilan qidiruv ishlarida qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar yaratilib, ishonchli natijalar olingan. Shunga qaramasdan, yirik miqyosdagi qidiruv ishlarida ma'danlashuv zonalarini aniqlash bo'yicha raqamli kosmik suratlardan foydalanishga doir uslubiy yo'riqnomalar mavjud emas. Bu esa, o'z navbatida, ma'danlashuv zonalarini qidirishning strukturaviy va spektral omillar bilan asoslangan ilmiy-tajriba xususiyatiga ega bo'lgan ishlanma va uslubiyot yaratish vazifasini qo'yadi.

Bugungi kunga kelib, tadqiqot maydoni joylashgan Markaziy Qizilqum hududi uchun relyefda ochilmalar hosil qilgan paleozoy hosilalaridagi oltin va boshqa ma'danlashuvga istiqbolli maydonlar fondi qisqardi.

Derbez-Ko'kpatos maydonlari qanotlari va ularning oralig'ida joylashgan maydonlarda geologik, geofizik, geokimyoviy ma'lumotlarni raqamli qayta ishlash bilan strukturaviy omillar hisoblangan ma'dan nazoratlovchi yer yoriqlarini tahlil qilish va infraqizil diapazonda olingan raqamli kosmik tasvirlardan ma'danlashuv zonalarini aks ettiruvchi spektral omillarga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish istiqbolli maydonlarni ajratishning ishonchlilik darajasini oshiradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy Universiteti va “Mineral resurslar instituti” DM ilmiy tadqiqot ishlari rejasining: “O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha 1:500 000 miqyosda kosmogeologik xarita – masofaviy asos yaratish” (2013-2016 yy.), 1268-sonli “Bukantov tog'ining g'arbiy va markaziy qismlari 1:50 000 miqyosidagi kosmogeologik tadqiqotlar o'tkazish” (2018-2021 yy.) hamda 1273-18-sonli “Yerni masofadan zondlashning raqamli materiallaridan foydalanib, Ko'kpatos-Oqjetpes trendi, Ko'kpatos konining g'arbiy qanoti – Derbez maydonida oltin va boshqa ma'danlarning joylashuvi kosmostrukturaviy xususiyatlarini o'rganish” (2020-2021

yy.) mavzuslaridagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Derbez-Ko'kpatos maydonlarida raqamli kosmik tasvirlash ma'lumotlarini multifraktal qayta ishlash orqali istiqbolli maydonlarni ajratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

raqamli ma'lumotlarni multifraktal tahlil qilish uslubiyotini ishlab chiqish bilan istiqbolli maydonlarni ajratish;

ma'danlashuv zonalarini qidirishda tadqiqot hududining kosmostrukturaviy va spektral omillar majmuasini ishlab chiqish;

spektral kosmik tasvirlar munosabati yordamida tadqiqot hududida tarqalgan ma'danli va ma'dan qamrovchi jinslarni xaritalash imkonini beruvchi kombinatsiyalar yaratish;

hududning istiqbolli maydonlarini aniqlash uchun raqamli kosmik tasvirlarni avtomatik va vizual talqin qilish orqali kosmostrukturaviy xarita tuzish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Derbez-Ko'kpatos maydonlaridagi ma'danlashuv zonalarini olingan.

**Tadqiqotning predmeti** ma'lum oltin ma'danli konlari va ma'danlashuv zonalarini, ma'dan nazoratlovchi yer yoriqlari, spektral nome'yorliklari, yondosh hududlarning geologik va strukturaviy elementlari, mintaqaviy va mahalliy darajadagi kosmostrukturallari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda tadqiqot hududi bo'yicha o'tkazilgan geologik va geofizik usullarning umumlashgan statistik tahlili, kosmik suratlarni ArcGIS-10.8, Envi-5.4, Lessa dasturlarida avtomatik, vizual va spektral qayta ishlash, kosmostrukturalar ajratish, raqamli ma'lumotlarni multifraktal tahlil qilish, kosmik suratlarni dala deshifrovkalash, an'anaviy geologiya qidiruv usullari orqali kuzatuv nuqtalari va strukturaviy-litologik kesimlar olish, aniqlangan ma'danlashuv zonalaridan namunalarni olish va ularning laboratoriya tahlil natijalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

istiqbolli maydonlarni ajratish uchun raqamlashtirilgan geologik, geofizik, geokimyoviy ma'lumotlarni kompleks tahlil qilish imkonini beruvchi multifraktal qayta ishlash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

relyefda morfostrukturaviy belgilar bilan namoyon bo'lgan ma'danlashuv zonalarini qidirishda yerni masofadan zondlash (YMZ) materiallarining kosmostrukturaviy va spektral omillari asoslangan;

spektral kosmik tasvirlar yordamida tadqiqot hududida tarqalgan ma'danli va ma'dan qamrovchi jinslarni xaritalash imkonini beruvchi kombinatsiyalar yaratilgan;

ko'psonali spektral kosmik tasvirlardan nome'yorliklarni ajratish asosida, geologik va geofizik ma'lumotlarning kompleks belgilari orqali istiqbolli maydonlarni aniqlashning mualliflik texnologik sxemasi yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Derbez-Ko'kpatos maydonlarida kosmik tasvirlarning yirik va mufassal miqyosdagi generalizatsiya darajasi bo'yicha kosmostrukturaviy sxematik xaritasi

tuzilgan;

bashorat-qidiruv ishlarini o'tkazish uchun yerni masofadan zondlash materiallarining kosmostrukturaviy va spektral omillari ishlab chiqilgan;

yerni masofadan zondlash materiallarini va geologik-geofizik ma'lumotlarni multifraktal tahlil qilish natijasida, istiqbolli oltin ma'danlashuv zonalari ajratilgan;

kosmik suratlarni multispektral diapazonda qayta ishlash natijasida gidrotermal o'zgargan zonalarni aniqlashning LandAltIndexMap ilovasi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan natijalar tadqiqot hududining geologik, geofizik, geokimyoviy maydon xaritalari, ma'danlashuvning strukturaviy, litologik va magmatik omillarni inobatga olgan holda infraqizil diapazondagi raqamli kosmik tasvirlarni spektral qayta ishlash orqali taqqoslangan. Tadqiqot hududi bo'yicha ajratilgan kosmostrukturalar istiqbolli maydonlarni ajratish uchun ma'danli zonalarni spektrini geologik, geofizik maydon ma'lumotlarining raqamli formatini multifraktal tahlil qilish bilan izohlanadi. Kosmik tasvirlarni dalada deshifirovkalash bilan geologik qidiruv marshrutlarining o'tilishi (42 km), kosmostrukturalarining makondagi holatini belgilash, kuzatuv nuqtalari 50 tadan ortiq, 1200 m<sup>3</sup> kanavalar o'tilib namunalarni olish va ularning laboratoriya tahlil natijalari bilan asoslanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Natijalarning ilmiy ahamiyati yerni masofadan zondlash materiallarining kosmostrukturaviy va spektral omillari asosida tahlil qilish bilan yondosh joylashgan bashoratlangan nome'yorliklarning yer yoriqlar yo'nalishiga bog'liq bo'lgan geologik-strukturaviy tuzilishini, kosmik suratlarni multispektral diapazonda qayta ishlash natijasida gidrotermal o'zgargan zonalarni aniqlashning LandAltIndexMap ilovasi yaratilganligini va spektral nome'yorlik hamda kompleks belgilar orqali istiqbolli maydonlarni aniqlashning yaratilgan mualliflik texnologik sxemasi raqamli ma'lumotlarni multifraktal tahlil qilish uslubiyotini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oltin va boshqa ma'danlashuvga ixtisoslashgan zonalarni aniqlash imkonini beruvchi yerni masofadan zondlash materiallarining kosmostrukturaviy va spektral omillari bilan geologik, geofizik ma'lumotlarning multifraktal tahlili istiqbolli pozitsiyalarni ishonchli ajratish imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, geologiya qidiruv ishlari bosqichlarini qisqartirib, qidiruv ishlari uchun o'tiladigan tog'-kon ishlanmalarini maqsadli yo'naltirish imkonini beradi, statistik, multifraktal tahlillar asosida olingan natijalar oltin va boshqa ma'danli foydali qazilmalarga istiqbolli maydonlarni ajratishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Derbez-Ko'kpatos maydonlarida ma'danlashuv zonalarni qidirishda yerni masofadan zondlash materiallarining kosmostrukturaviy va spektral omillarini aniqlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

yerni masofadan zondlash materiallarining spektral omillari "O'zbek geologiya qidiruv" AJ amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024 yil 13 apreldagi 08-1319-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Derbez-Ko'kpatos maydonlarida oltin va boshqa ma'danlarning endogen

ma'danlashuv zonalarini aniqlash imkonini bergan;

multispektral tasvirlarni maxsus algoritmlar bilan qayta ishlash natijasida aniqlangan spektral omillar "O'zbek geologiya qidiruv" AJ amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 13-apreldagi 08-1319-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Derbez-Ko'kpatos maydonlarida mufassal geologik qidiruv ishlarini olib borishga asos bo'lib xizmat qilgan;

Yerni masofadan zondlash ma'lumotlarini multifraktal tahlil qilish usuli "O'zbek geologiya qidiruv" AJda amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 13-apreldagi 08-1319-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yopiq hududlarda istiqbolli maydonlarni ajratishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Olingan natijalar 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 tasi respublikada, 1 tasi xorijda, konferensiya materiallari to'plamlarida 4 ta, jumladan 2 tasi xorijda.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, 38 ta rasm, 7 ta jadval va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 110 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo'lgan talab, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatlari, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Derbez-Ko'kpatos maydonlarining o'rganilganlik holati**" deb nomlangan birinchi bobida hududning geologik, geofizik, geokimyoviy hamda kosmogeologik o'rganilganlik darajasi yoritib berilgan.

Tadqiqot hududida olib borilgan geologik tasvirlash va qidirish ishlari ko'pgina geologlar tomonidan olib borilgan, (K.K.Pyatkov, F.A.Usmonov, A.K.Buxarin, A.D.Shvetsov, V.V.Ovechkinkar, V.I.Zonov, S.Y.Lapidus, V.S.Korsakov) natijada, foydali qazilmalar mavjudligi to'g'risida belgilar topilgan. Bu ishlarga parallel ravishda, Bukantov, Oltintov, Ko'kpatos tog'larida Markaziy Qizilqumning past haroratli postmagmatik formatsiyalarini o'rganish bo'yicha tematik ishlar (X.R.Rahmatullaev) olib borilgan, ular asosida hudud uchun yangi minerallashuv zonalarini aniqlangan.

L.I.Dementeenko, L.P.Kinderov va boshqalar geologik-geofizik, geokimyoviy va distansion ma'lumotlarni kompleks talqin qilgan, keying qidiruv va baholash

ishlari uchun oltin va boshqa foydali qazilmalarga boy bo'lgan maydon hamda mintaqalarga ajratgan. Hududning geologik-geodinamik tuzilishi R.X.Mirkamalov tomonidan o'rganilgan.

Geofizik tadqiqot ishlari hududda V.V.Kuznesov, N.I.Oranskiy, A.G.Kutepov, N.K.Roz, M.A.Dirda, N.I.Solovev, L.N.Kotlyarev, I.A.Fuzaylov, I.L.Kremnev, Y.T.Litvinov, A.V.Yevstigneyev, T.P.Radayev, I.I.Popov, G.A.Ivanov, V.Y.Nesterchuk, A.K.Roz, S.Ryazanov, Y.T.Abramov, N.S.Babayans, P.S.Bachura, S.Y.Kalashnikovlar tomonidan olib borilgan. Natijada, intruziv massivlarining tarqalish hududlari aniqlangan, submeridional va subkenglik yo'nalishidagi bir qator darzlanishlar zonasi qayd qilingan, potensial ma'danli pozisiyalar ajratilgan, oltin birikmalarini qidirishning hududiy va mahalliy belgilari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot hududida geokimyoviy izlanishlar asosan 1961 yili Bukantov, Jetimtov va Ko'kpatos tog'larida 1:50000 miqyosda metallometrik xaritalash ishlari bilan boshlanishi natijasida mis va molibdenning bir qator ikkilamchi oreollari aniqlangan. Keyinchalik ushbu yo'nalishdagi ishlar N.G.Degtyarov va G.V.Korobeynikovlar tomonidan davom ettirilgan va surma hamda margimush elementlarining qo'shimcha oreollarini aniqlashgan.

Tadqiqot hududi bo'yicha ilmiy asoslangan izlanishlar o'tkazilgan: M.K.Turapov ma'dan nazoratlovchi strukturalar hosil bo'lishining tektonofizik sharoitlarini aniqladi; N.N.Koroleva, S.Y.Klempert, I.V.Koroleva, V.D.Soylar turli yillarda Ko'kpatos, Saritov, Sautbay, Turbay konlari ma'danlarining mineralogik xususiyatlarini o'rgandilar; V.Y.Zimalina, M.U.Isokovlar oltin zaxirasi hisoblangan bloklarda zaxiralarni tasdiqlamaslik masalalari bilan shug'ullanishgan; N.Y.Dulabova Bukantov tog'i va atrofidagi yopiq hududlarning oltin ma'danlashuvining joylashish qonuniyatlari va strukturalarining istiqbolliligini baholadi; M.S.Karabayev tomonidan Bukantov tog'laridagi oltin va oltin-nodirmetalli ma'danlashuvning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari va qidiruv-baholash mezonlari yaratilgan; V.N.Urunov Bukantov tog'idagi oltin konlarida geologik ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash muammolarini ko'rib chiqqan; T.B.Ishboboyev Oqjetpes ma'danli maydoni geologik tuzilishining xususiyatlari, ma'danliliigi va oltin ma'danlashuviga istiqbolini aniqlagan; M.Sh.Moyliev Markaziy Bukantov oltin ma'danlarining moddiy tarkibi, joylashuv xususiyatlari va qidiruv belgilari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan.

Butun Markaziy Qizilqum va uning tog'-kon mintaqalari uchun 1:200 000, 1:100 000 miqyosidagi kosmogeologik tadqiqotlar Mineral resurslar institutida Sh.A.Ergashev va boshqalar tomonidan olib borilgan. 2007-2010 yillar mobaynida raqamli kosmik tasvirlardan foydalanish asosida Markaziy Qizilqum hududining 1:200 000 miqyosdagi masofaviy asos xaritalari tuzildi. 2010-yilda A.K.Glux va A.R.Avezovlar tomonidan Bukantov tog'lari markaziy qismining tektonik tuzilishini uch o'lchamli 1:200 000 miqyosdagi raqamli model xaritasi tuzilgan.

Tadqiqot hududi hisoblangan Derbez va Ko'kpatos maydonlari bo'yicha bugungi kunga qadar ko'plab kosmogeologik ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari

bajarilgan bo‘lib, ushbu hudud uchun 1:200 000 dan 1:50 000 miqyosgacha generalizatsiya darajasidagi kosmostrukturaviy sxemalar tuzilgan. Lekin kosmik tasvirlarning fazoviy ko‘rsatkichi darajasi bilan cheklanganligi bois, 1:25 000 miqyosgacha spektral nome‘yorlik hosil qiluvchi ma‘danli zonalarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, mufassal miqyosgacha bo‘lgan tog‘-kon ishlanmalarini o‘tishga tavsiya beradigan geologiya-qidiruv ishlarini yo‘naltirish uchun kosmogeologik tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“Yerni masofadan zondlash ma‘lumotlarini qayta ishlash uslubiyoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida zamonaviy kosmik suratlarni qayta ishlash va ularni mufassal bosqichdagi qidiruv ishlarida qo‘llash uslubiyoti yoritilgan. Kosmik tasvirlarni dastlabki qayta ishlash turli xil tasvir buzilishlarini yo‘qotish maqsadida tuzatmalar kiritishga qaratilgan usullar ketma-ketligini o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichdagi qayta ishlashlarning asosiy maqsadi, tasvirning vizual namoyon bo‘lish darajasini yaxshilash hamda uni keyingi spektral qayta ishlash va tahlil qilish uchun qulayroq shaklga aylantirish maqsadida amalga oshirildi.

Raqamli kosmik tasvirlarni sun‘iy yo‘ldoshlar optik, skanerlash va boshqa bir qancha tasvirlash usullari orqali masofadan qayd qiladilar. Keyinchalik ushbu tasvirlar kosmik agentliklarning maxsus saytidan, masalan, USGS (AQSH geologiya xizmati)ning Glovis, Earthexplorer kabi ochiq foydalanishdagi ilova saytlaridan arxiv ko‘rinishida zip, \*rar fayllar turida yuklab olindi. Keyingi bosqichda Erdas Imagine, Envi, Geomatica PCI kabi kosmik suratlarni maxsus qayta ishlovchi dasturlarda tasvirlarga atmosferaviy, geometrik va topografik tuzatmalar kiritildi. Ushbu kosmik suratlar uchun spektral kanallar sintezi amalga oshirildi, ya‘ni, bunda barcha tasvir kanallarini yagona tasvir formatida uchta R (qizil), G (ko‘k), B (yashil) nisbatida aks ettirishga xizmat qildi. Mazkur uchta kanal munosabati bo‘yicha bir necha xil sun‘iy kombinatsiyalar bajarildi.

Ma‘lumki, vizual deshifrovkalash jarayoni bevosita deshifrovkalovchi mutaxassisning tajribasi tasvirdagi deshifrovkalash sxemalarida chiziqli obyektlarning ko‘psonli bo‘lishi bilan tushuntiriladi. Qadimgi burmalanish bosqichlarining deformatsiyalaridan kelib chiqqan harakatlarning davomiy tabiati ham bunga o‘z hissasini qo‘shadi.


Shu bilan birga, relyef va YMZ ma‘lumotlarida qadimgi strukturalarning faqat bir yoki bir nechta belgilari namoyon bo‘ladi. Masalan, tadqiqot hududining zamonaviy relyefida shimoli-g‘arbiy yo‘nalishlardagi paleozoy ochilmalarini ko‘ndalang kesib o‘tuvchi shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi gersin strukturalari aniq deshifrovkalanishi namoyon bo‘ladi. Kosmofotogeologik sxemalar va xaritalarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyati meridional yo‘nalishdagi mintaqaviy darzlanish zonalari va yer yoriqlari mavjudligidir. Yer qobig‘idagi deformatsiyalar qanchalik chuqurroq bo‘lsa, ular shunchalik tarqoq (yer yoriqlari, mintaqaviy darzlanish zonalari) holatda yer yuzasiga yetib boradi va masofadan zondlashning yuqori darajadagi generalizatsiyasida yaxshiroq ajratiladi. Shuning uchun ushbu strukturalar tadqiqot hududi uchun YMZ ma‘lumotlaridan foydalanmasdan tuzilgan

geologik xaritalarda aks ettirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqot ishini tayyorlashga asos bo'lgan tadqiqot hududida olib borilgan amaliy kosmogeologik tadqiqotlar doirasida multispektral kosmik tasvirlarni spektral qayta ishlashning 40 dan ortiq kanallar munosabati bilan qayta ishlash bajarildi. Natijada, ma'dan va minerallashuv zonalarini xaritalash imkonini beruvchi 10 ta yangi kombinatsiya yaratildi (1-rasm).

Infraqizil va radiolokatsion usullar bilan olingan kosmik tasvirlarni strukturaviy tahlil qilishda WinLessa va PCI Geomatica dasturlaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishi doirasida lineament tahlil qilishning vizual va avtomatlashtirilgan usullaridan keng foydalanildi. Vizual tahlil qilish usullari kosmogeologiya sohasida an'anaviy usullardan hisoblanib, aerofotoapparatlar yordamida olingan ilk oq-qora aerosuratlardagi geologik strukturalarni ajratish bilan boshlangan va bugungi kunda ham mazkur tadqiqotlarlar izchil davom ettirilmoqda. Ushbu tadqiqot ishida ham talqin qilishning bevosita va bilvosita usullaridan foydalanib, vizual deshifrirovkalash uch xil miqyosga muvofiq keluvchi: mintaqaviy, mahalliy, mufassal generalizatsiya darajasi orqali bajarildi.



**1-rasm. Hidrotermal o'zgargan zonalarini xaritalash imkonini beruvchi yaratilgan yangi kanallar kombinatsiyalari.** 1 – LC8. 6/7, 4/2, 5/6; 2 – LC8. 6/7, 6/5, 7/6; 3 – LC8. 7/4, 4/3, 6/7; 4 – LC8. 7/6, 4/3, 5/6 (N.R.Hasanov, 2023).

Ma'dan minerallashuvi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan gidrotermal o'zgargan zonalarini xaritalash ma'danli foydali qazilmalar ustida geologik qidiruv ishlarini olib borish maqsadida, Derbez, Ko'kpatos, Ko'kpatos-Oqjetpes yo'nalishlarining g'arbiy yon bag'ridagi o'zgargan jinslarni xaritalash uchun o'rta va yuqori aniqlikdagi Landsat-8 va Sentinel-2A multispektral sun'iy yo'ldosh tasviridan foydalanildi.


Dissertatsiyaning **“Derbez-Ko'kpatos maydonlarining kosmogeologik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Derbez-Ko'kpatos maydonlarida tarqalgan ma'dan zonalarini qidirishda hududning kosmostrukturalari (chiziqli va halqali) yoritilgan.

Lineament tahlil usuli turli xil maydondagi chiziqli obyektlarni ajaratishda ishlatiladi. Ushbu yondashuv bilan tadqiqot hududi uchun geofizik maydonda aks etgan nome'yorliklarning chiziqli yo'nalishi va keskin o'zgarishi chiziqli strukturalarda ajratildi. Tadqiqot hududi bo'lgan Derbez va Ko'kpatos maydonlarining tektonik tuzilishi haqida fundamental tasavvurga ega bo'lish uchun V.I.Chechulin tomonidan 1982 yilda tuzilgan 1:25 000 miqyosli geologik xarita, 1986-yilda Y.B.Aysanov tomonidan tuzilgan 1:50 000 miqyosli aerofotogeologik xaritalardagi yer yoriqlari va chiziqli tektonik elementlar etalon lineamentlar sifatida xizmat qildi.

Zamonaviy relyefdagi chiziqli morfostrukturalar va lineamentlar tizimining yo'nalishi va chiziqli o'zgarishini tahlillashning dasturiy ta'minotlarga ko'chishi ularni sub'ektiv qarash bilan ajratish muammosini yechishga xizmat qildi.

WinLessa dasturi radiolokatsion (AsterGDEM va Sentinel) va infraqizil (Landsat) diapazonda olingan raqamli kosmik tasvirlardagi chiziqli teksturalarning o'zgarishi bo'yicha bir nechta muhim ko'rsatkichlarni olish imkonini berdi.

Derbez maydoni hududida ma'danlashuv joylashuvining belgilari (va uning zonalik ehtimoli) halqali struktura bilan bog'liq. Hudud bo'yicha so'nggi o'ttiz yillikda olib borilgan geologik qidiruv ishlari natijasida ajratilgan ma'danli zonalar, bizning ushbu maydon hududi doirasida va unga yondosh maydonlarda ma'danlashuvning geologik strukturaviy omillarini kosmogeologik usullar yordamida aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarimiz bilan taqqoslanganida, oltin ma'danli minerallashuv halqali struktura bo'ylab va uning karkasli elementlari bilan aloqador ekanligi aniqlandi.



**2-rasm. Derbez halqali strukturasiining geologik xaritada va kosmik suratda aks etishi (V.F.Chechulin (1982) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi):** 1 – Yer yoriqlari va tektonik kontaktlar (ishonchli); 2 – Yer yoriqlari va tektonik kontaktlar (taxminiy); 3 – halqali strukturalar; 4 – o'rtta toshko'mir davri vulkanogen va terrigen fatsiyalarining ajratilmagan yotqiziqlari (qorashoxa svitasi); 5 – yuqori rifey ko'kpatos svitasi kremniyli jinslar; 6 – minerallashuv zonasi.

Minerallashgan zonalarning morfologiyasi Derbez halqali strukturasi ichki tuzilishlari morfologiyasiga mos keladi. Xuddi shunday, Ko'kpatos svitasi jinslarida aniqroq aks etgan (2-rasm).

Aniqlangan o'ziga xoslik oltin ma'danlashuvining geologik makondagi joylashuvi ma'dan hosil qiluvchi jarayonlarning halqali struktura bo'ylab bir necha marotaba yangilanganligini aks ettiradi.

Etalon ma'danli obyektlar bo'yicha aniqlangan roza diagrammalar ma'dan tanalari shakllangan strukturalar shakli va zamonaviy relyefdagi yo'nalishlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud ekanligini ko'rsatdi (jadval). Aniqlangan ushbu o'ziga xoslik yangi istiqbolli maydonlarni strukturaviy tahlil bo'yicha ajratishga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot hududidagi kon, ma'dan namoyoni va istiqbolli maydonlari ma'dan nazoratlovchi kosmostrukturalarining strukturaviy holati va roza diagrammasi**

Kon, ma'dan namoyoni va istiqbolli maydon	Strukturaviy holati	«LESSA» dasturida aniqlangan roza diagrammasi	Kon, ma'dan namoyoni va istiqbolli maydon	Strukturaviy holati	«LESSA» dasturida aniqlangan roza diagrammasi
Oltintov			Janubiy Aytim		
Bo'ztov			Yo'l oldi uchastkasi		
Bulutkon			Istiqbolli maydon № 1		
Sarapan			G'arbiy Oqjetpes		
Derbez			Istiqbolli maydon № 2		
Shimoliy Aytim			Istiqbolli maydon № 3		
Istiqbolli maydon № 4			Istiqbolli maydon № 5		

Aniqlangan istiqbolli pozitsiyalarni ajratishga kosmik tasvirlarni turli diapazonlarda avtomatik va vizual talqinlash natijalarini, ma'dan nazoratlovchi yer yoriqlari va etalon obyektlarning spektral xususiyatlari hamda geofizik va geokimyoviy maydonda tutgan o'rni asos bo'lib xizmat qildi.

Hududda tarqalgan geologik hosilalarning morfologik belgilari halqali va yoy shakllari halqali strukturalarni deshifrovkalash va ularning metallogenik ahamiyatini baholash imkonini berdi.

Kosmik tasvirlarni strukturaviy deshifrovkalash natijalari tadqiqot hududidagi etalon ma'dan obyektlarining mavjud bo'lgan 1:25 000 miqyosdagi geologik strukturaviy xaritalari bilan taqqoslandi va talqin qilish belgisi sifatida xizmat qiladi.

Derbez halqali strukturasidagi halqali va radial ko‘rinishdagi yer yoriqlarida geokimyoviy maydon xaritasidagi oltin oreoli joylashuvini nazorat qiladi.

**Yondosh potensial ma‘dan pozitsiyasi.** Ko‘kpatos-Oqjetpes graben-sinklinalining strukturalari yo‘nalishining almashinuv qismida va Ko‘kpatos chuqur yer yorig‘i (o‘tkazuvchanligi kuchaygan zonalar) bilan chegaralangan. Qorashoxa svitasining (S<sub>2</sub>kr) gravelit-qumtosh-alevrolitli qatlami va S<sub>2</sub> davrining alevolit-qumtosh-slanesli jinslarida joylashgan. Ushbu kosmostrukturaning tuzilishi bloklarning qarama-qarshi harakat yo‘nalishlarini chiziqli aks ettiruvchi, bo‘ylama Gertsin braxiantiklinal burmasi bilan tavsiflanadi.

**Janubiy Ko‘kpatos istiqbolli pozitsiyasi.** Ko‘kpatos ma‘dan maydonining janubi-g‘arbidagi Ko‘kpatos-Oqjetpes graben-sinklinalining Ko‘kpatos qismida uning davomi sifatida parallel yo‘nalgan lineamentlar oralig‘idagi struktura sifatida ajratildi. Ko‘kpatos chuqur yer yorig‘ining ikki tarmog‘i o‘rtasida joylashgan hududni, kosmostrukturaviy sxemada aks etgan Sardor-Keytar bloklararo qo‘shni parallel yer yoriqlar guruhlarini qamrab oladi. Litologik jihatdan Qorashoxa (S<sub>2</sub>kr) svitasining aralashgan alevrolit-qumtosh-slanetsli va Quyi Ko‘kpatos subformatsiyasida (PR<sub>3</sub>kp) terrigen-karbonat-kremniyli jinslarida joylashgan.

Pozitsiya ponasimon shaklidagi blokli tuzilishga (bloklarning joylashuvida – Gersin burmalangan kompleksining hosilalari aniqlanmagan) ega bo‘lib, usturilmali struktura va gravimagnit ma‘lumotlarning talqini bo‘yicha oraliq magma kamerasining mavjudligi bilan bog‘liq halqali struktura bilan tavsiflanadi.

**Sharqiy Derbez istiqbolli bashorat pozitsiyasi quyidagi omillar bo‘yicha yaqqol ajratildi:**

1. Strukturaviy. Istiqbolli pozitsiya sifatida ajratilgan uchastka shimoli-sharqiy (40°) yo‘nalishdagi yirik yer yoriqlar zonasi shimoli-sharqiy yer yoriqlar o‘qidan har ikki yo‘nalishda 0-1 kmgacha bo‘lgan ko‘ndalang va diagonal yo‘nalishdagi uzilmali buzulishlar bilan murakkablashgan.

2. Magmatik omillarga ko‘ra, Oltintov granitoid intruzivining ekzokontakt zonasi (geofizik ma‘lumotlar bo‘yicha intruzivning gorizontaal proeksiyasi konturidan 1-2 km ichkarida) bilan bog‘liq.

3. Geofizik qidiruv belgilariga ko‘ra gravitatsion maydon qiymatlarining taqsimlangan o‘zgarishi Ko‘kpatos ma‘dan maydoniga o‘xshash gravitatsion maydon nome‘yorliksi maksimal o‘qiga (o‘qning har ikki tomonida 0-1 km) muvofiq keladi.

4. Litologik omillar. Uglerodli qamrovchi jinslar Ko‘kpatos svitasining (PR<sub>3</sub>kp) kvarts-seritsitli slaneslari, alevrolitlari, qumtoshlari, quyi Ko‘kpatos subformatsiyasining fillitsimon slaneslaridan tarkib topgan.

5. Metasomatik o‘zgarishlar darajasi. Dala shpati-kvarts-slyuda tarkibidagi metasomatik o‘zgarishlarning ko‘rinishlari yer yoriqlari bo‘ylab namoyon bo‘ladi.

6. Dalada deshifirovkalash va o‘tilgan strukturaviy-litologik kesimlar bo‘yicha mahalliy darajadagi ikkilamchi o‘zgarishlardan tomirli-mayda tomirchali shtokverkli kvartslashuv va tomirchali sulfidlashuv zonalari kuzatiladi.


Dissertatsiyaning **“Derbez-Ko‘kpatos maydonlari kosmik**

**suratlarining spektral nome'yorliklari va ma'danlashuv bilan aloqadorligi"** deb nomlangan to'rtinchi bobida asosan spektral qayta ishlash bilan mufassal geologik qidiruv tadqiqotlarini olib borishga asos bo'luvchi ma'danli zonalarini qidirishga qaratilgan tadqiqot ishlari bajarilgan.

Kosmik tasvirlarda qayd qilinadigan maydonli obyektlarni tahlil qilishning xususiyatli obyektlaridan biri tekstura hisoblanadi. Tekstura xususiyatlari istalgan yer yuzasidagi geologik obyektlarning fazoviy xususiyatini o'zida aks ettiradi va mahalliy miqyosdagi generalizatsiya darajasigacha namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda GAT-texnologiyalari muhitida va kosmik tasvirlarni qayta ishlashda tasvir teksturasi va uning xususiyatini aniqlashning turlicha usullari keng qo'llaniladi. Jumladan, ushbu tadqiqot ishida strukturaviy, spektral, statistik va geometrik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot hududi hisoblangan Ko'kpatos va Derbez maydonlari va ularning flanglarida ochilgan paleozoy yotqiziqlari o'zi bilan tekstura va spektral xususiyatlarni ancha yaxshi namoyon qilgan. Yaratilgan yangi kanallar munosabati spektral nome'yorlik asosida tadqiqot hududidagi qamrovchi va ma'dan qamrovchi jinslarni o'zida saqlovchi ko'kpatos, qorashoxa svitalarini va minerallashuv zonalarini xaritalash imkonini berdi (3-rasm).



**3-rasm. Minerallashuv zonasi va ma'dan qamrovchi jinslarni xaritalash:** a – yuqori ko'rsatkichli kosmik tasvir va yaratilgan kanallar munosabati; b – LC8 R = 6/5, G = 7/6, B = 4/7 (N.R.Hasanov, 2023); c – LC8 R = 6/7, G = 6/4, B = 4/2; d – LC8 R = 7/4, G = 4/3, B = 6/7 (N.R.Hasanov, 2023).

Landsat-7 (ETM) sun'iy yo'ldoshida panxromatik va termal kanallardan tashqari 7 ta kanali bilan ularning nisbatini yaratadigan bo'lsak, tanlanayotgan kanalni shu kanalga bo'lishni inobatga olgan holda, 30 ta kanallar nisbati yuzaga keladi. So'ngra uni R(qizil), G(yashil) va D(ko'k) kanallar uchun tanlaydigan bo'lsak, ushbu jadvaldan 406 ta kombinatsiya hosil qilish imkonini beradi.

Kanallar nisbati algoritmining matematik ifodasi quyidagi ko'rinishda aks


etadi:

$R = B_6 = 10,40 - 12,50 : B_7 = 2,08 - 2,35; G = B_6 = 10,40 - 12,50 : B_4 = 0,77 - 0,90; B = B_5 = 0,85 - 0,88 : B_2 = 0,52 - 0,60.$

Yuqorida keltirilgan ifodaning matematik yechilishini nazariy jihatdan tushunish uchun kesmani kesmaga bo'lish amalidan foydalanish mumkin. Lekin, amaliy jihatdan raqamli suratning tasvir sifat ko'rsatkichida, ya'ni, har bir piksel o'zida rang ko'rsatkichining raqamli qiymati mavjudligi sababli, bunda tanlangan kanaldagi pikselning rang qiymati bo'luvchi kanalning pikselidagi rang qiymatiga bo'linadi.

Yaratilgan algoritmlarga asoslanib, Landsat-8 (OLI) kosmik surati uchun yana bir yangi algoritm 6/7, 6/4, 5/2. kanallar nisbati asosida Ko'kpatos ma'dan maydonidan 30 km janubi-g'arbda yangi uchta istiqbolli uchastka ajratildi.

Tadqiqot hududida olib borilgan kosmogeologik tadqiqotlar asosida ilk bora kosmik suratlarni multispektral diapazonda qayta ishlash natijasida gidrotermal o'zgargan zonalarini ajratishning yangi algoritmi yaratildi va Markaziy Qizilqumning Bukantov tog'lari hududi uchun qo'llanildi. Quyidagi rasmda etalon sifatida Ko'kpatos oltin konining tanlangan spektr xususiyatlari va geologik holatiga solishtirish natijalari keltirilgan (4-rasm).



**4-rasm. Ko'kpatos ma'dan maydoni geologik xaritasidan fragmentlar (Marchenko, 1982) va Landsat-8 (OLI) kosmik suratlarni multispektral diapazonda qayta ishlash natijasida gidrotermal o'zgargan zonalarini sifatida ajratilgan minerallashuv va oltin ma'danlashuv zonalarini solishtirish natijalari.** 1 – o'rta toshko'mir davri ajratilmagan yotqiziqlar vulkanogen va terrigen fatsiya (Qorashoxa svitasi); 2 – ko'kpatos svitasi yotqizqlarining kremniylashgan jinslari; 3 – ko'kpatos svitasi karbonatli jinslari; 4 – yuqori bo'r davri turon yarusi yotqizqlari; 5 – to'rtlamchi davr yotqizqlari; 6 – oltin ma'danlashuv zonalari; 7 – minerallashuv zonalari; 8 – yer yoriqlari; 9 – halqali strukturalar; 10 – kosmik suratni qayta ishlash natijasida namoyon bo'lgan gidrotermal o'zgargan zonalar.


Tadqiqot hududi uchun ma'dan qamrovchi vulkanogen va terrigen fatsiyadagi o'rta toshko'mir davri Qorashoxa svitasi yotqizqlari hamda Ko'kpatos svitasi yotqizqlarining kremniylashgan jinslari asosiy spektral nome'yorlik hosil qiluvchi obyektlar sifatida namoyon bo'ldi. Geologik xaritadan tanlangan ma'danlashuv zonasi kosmik suratni spektral qayta ishlash natijasi bilan taqqoslandi. Ushbu holatda etalon sifatida tanlangan uchastkadagi tog' jinslari va ma'dan qamrovchi

jinslar uchun spektrlar nolga teng deb qabul qilindi va rang shkalasi yashil spektrga o'tkazildi. Natijada, ma'dan qamrovchi jins va litologik tarkibi bir xil bo'lgan aynan ma'dan zonasi bilan bog'liq bo'lgan spektr shaklidagi nome'yorlik paydo bo'ldi. Bu nome'yorlik RGB tizimidagi shartli qizil va yashil diapazon oralig'iga o'tkazilishi bilan sariq rangdagi ma'danlashuv zonasini namoyon qildi.

ArcGIS dasturida o'zida raqamli ko'rinishdagi vektorli va rasterli ma'lumotlarni statistik tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bir nechta modullar mavjud bo'lib, ular o'zi bilan barcha geoma'lumotlarni statistik tahlil qilish imkonini berdi.

Kosmik tasvirlarni kodlash qayta o'zgartirish va ular uchun algoritmi va matematik topshiriq yozish hamda tasvir teksturasi va uning xususiyatini aniqlash uchun geometrik tahlil uchun Erdas imagine dasturidan foydalanildi.

Spektral nome'yorlik va kompleks belgilar orqali istiqbolli maydonlarni aniqlash uchun kompleks texnologik sxema yaratildi (5-rasm).



5-rasm. Spektral nome'yorlik va kompleks belgilar orqali istiqbolli maydonlarni aniqlashning texnologik sxemasi (N.R.Hasanov, 2023).


Kosmik tasvirning istalgan bir kanali mutloq oq rangdan mutloq qora ranggacha bo'lgan spektral yorqinlik qiymatlarining degradatsiyasi bilan belgilanadi va u 0 dan 255 gacha qiymatga o'zgaradi. Kosmik tasvirlarni spektral qayta ishlashda yorqinlik qiymatlari o'rtasidagi fazoviy o'zaro bog'liqlik asosida unga nisbatan eng yaqin joylashgan qo'shni piksel nuqtalari yorqinlik qiymatlariga o'tish matritsalarini bilan hisoblandi. Ushbu teksturani tahlil qilishning spektral usulida kulrang rangdagi qo'shnilik matritsasi bo'lgan Xaralik matritsasiidan foydalanildi.

Kosmik tasvirlarni infraqizil diapazonda spektral qayta ishlash maqsadi ma'lum bir hududning geologik nobirxilligi haqida ranglar uyg'unligidagi yangi ma'lumotlar olish hisoblanadi.

Yangi yaratilgan gidrotermal o'zgargan zonalarini ajratishning algoritmini qo'llash orqali olingan qayta ishlash natijasi bilan sulfid minerallasuv va oltin

ma'danlashuv zonalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligi aniqlandi. Natijada, gidrotermal o'zgargan zonalar ajratildi va bevosita ushbu zonalarda mukammal geologik kuzatuv nuqtalari va tog' ishlanna (jo'yak)lari o'tildi.

Landsat-8 kosmik suratining 6/7 va 6/4 kanallari nisbatining oraliq diapazoni spektrdagi qizil va yashil ranglar uyg'unligida sariq rang namoyon bo'ladi. Qayta ishlash natijasida olingan spektr tasviri quyidagi 6-rasmda keltirilgan. Ushbu rang qiymati sulfid minerallashuviga ega bo'lgan gidrotermal o'zgargan zonalariga mos keldi. Yo'l oralig'i istiqbolli uchastkasi o'rta miqyosli spektral fonda yagona nome'yorlik shaklida namoyon bo'ldi, yirik miqyosda qayta ishlash natijasida esa, Ko'kpatos-Oqjetpes trendi yo'nalishida uchta mustaqil obyekt sifatida namoyon bo'ldi (6-rasm).



**6-rasm. Yo'l oralig'i istiqbolli uchastkasi spektral nome'yorlik ko'rinishida namoyon bo'lishi.**

Ushbu uchastkalar mezo-kaynozoyning cho'kindi yotqiziqlariga o'tish chegarasida joylashgan bo'lib, geofizik ma'lumotlar bo'yicha janubga tomon cho'kindi qavati 100 m dan 280 m gacha qalinlikka yetadi. Ushbu joyda kam sonli quduqlar burg'ulangan bo'lib, ular asosan monosgranodioritli Ko'kpatos intruzivi va Ko'kpatos svitasining terrigenli-kremniylashgan yotqiziqlarini ochgan. Geologik va geofizik ma'lumotlar bo'yicha ushbu uchastkalar, Ko'kpatos intruzivining sharqiy ekzokontakt qismiga to'g'ri keladi. Uchastkaning shimoli-sharqiy qismidan ma'dan nazoratlovchi Markaziy Bukantov-Ko'kpatos chuqur yer yorig'i shimoli-g'arbiy yo'nalishda kesib o'tadi. Ushbu uchastkalarining yana bir o'ziga xos qulay sharoiti, subkenglik yo'nalishidagi Janubiy Sautbay yuqori o'tkazuvchan darzlanish zonasida joylashganligidir. Shunday qilib, multispektral Landsat-7, 8 kosmik suratlarini elektromagnit diapazonida qayta ishlash natijasida ajratilgan gidrotermal o'zgargan zonalar hududdagi ma'dan hosil bo'lishini nazoratlovchi magmatik, litologik va strukturaviy omillar bilan o'zaro bog'liqdir. Ajratilgan istiqbolli uchastkalarda kosmik suratda namoyon bo'lgan strukturalarni dalada deshifrirovkalash ishlari olib borildi va spektral nome'yorlik asosida ajratilgan zonalar ikkilamchi o'zgargan, temirlashgan, gidrotermal zonalar ekanligi aniqlandi.

Ushbu zonalarda tog' jinslari ohaktoshlarning qora slaneslar bilan kontakti va kvartsitlardan iborat bo'lib, ba'zan kvarts tomirlari bilan uchraydi. Bu zonalardan o'tilgan tog' ishlanma (jo'yak)laridan olingan namunalar Ingichka tajriba texnologik ekspeditsiyasida laboratoriya tahlilidan o'tkazildi va spektral tahlil natijalari jinslarda oltin ma'danlashuvi mavjudligini tasdiqladi.

## XULOSA

Tadqiqotlarning natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarni keltirish mumkin:

1. Olingan natijalar geologik, geofizik, geoximik ma'lumotlardan foydalanish bilan ochiq va yopiq hududlar va ularning chegarasida ilgarilanma kosmogeologik tadqiqotlar olib borishda uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

2. Raqamli kosmik tasvirlarning mahalliy miqyosdagi generalizatsiya darajasidagi strukturaviy tahlili asosida, ma'danlashuv bilan bog'liq strukturaviy omillar ajratildi.

3. Raqamli kosmik suratlarni infraqizil diapazonda qayta ishlash natijasida, gidrotermal o'zgargan zonalar spektrini ajratishning LandIndexAltMap ilovasi yaratildi. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida katta hajmdagi geologik va geofizik, geokimyoviy ma'lumotlarni sun'iy ong boshqaruviga asoslangan chuqur tahlilga olib o'tilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

4. Multispektral kosmik tasvirlarni spektral qayta ishlash asosida yaratilgan yangi kombinatsiyalar hududda tarqalgan qamrovchi va ma'dan qamrovchi jinslarni xaritalash imkonini berdi.

5. Katta hajmdagi raqamli geologik, geofazoviy, geokimyoviy, kosmogeologik ma'lumotlarni qayta ishlashning mualliflik texnologik sxemasi asosida raqamli ma'lumotlarni multifraktal tahlil qilish uslubiyoti ishlab chiqildi.

6. Tadqiqot hududidagi kon, ma'dan namoyoni va istiqbolli maydonlari ma'dan nazoratlovchi kosmostrukturalarining strukturaviy holatini roza diagrammasi orqali aniqlashda kosmik tasvirlarni infraqizil diapazonda spektral qayta ishlash natijalaridan foydalanildi. Aniqlangan ma'dan nazoratlovchi kosmostrukturalar va gidrotermal o'zgargan zonalar spektral nome'yorliklar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

7. Ilmiy tadqiqot ishini bajarish orqali olingan natijalar ma'dan tanalarining spektral nome'yorliklari asosida mufassal geologik izlash tadqiqotlarini olib borishda qidiruv ishlarining ishonchliligini yangi darajaga olib chiqadi, chunki ajratilgan uchta istiqbolli uchastkada yuqori darajada oltin ma'danlashuv mavjudligi tog'-kon ishlanmalaridagi namunalar bilan tasdiqlandi.

8. Aniqlangan geologik-geofizik va strukturaviy-spektral qidiruv-bashoratlash omillarini tadqiqot maydonidagi etalon oltin konlari va qisman yopiq yondosh maydonlarda olib borilgan ishlarda qo'llash natijasida, oltin ma'danlashuviga istiqbolli bo'lgan Janubiy Ko'kpatos istiqbolli pozitsiyasi (ilgari mavjudligi bashoratlangan) Sharqiy Derbez, Yondosh va Yo'l oralig'i istiqbolli bashorat pozitsiyalari ajratildi va ularda keyingi bosqichdagi mufassal geologiya-qidiruv ishlarini olib borish tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГУ «ИНСТИТУТ ГЕОЛОГИИ И  
ГЕОФИЗИКИ ИМ. Х.М.АБДУЛЛАЕВА»**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**ХАСАНОВ НУМОНЖОН РАХМАТОВИЧ**

**КОСМОСТРУКТУРНЫЕ И СПЕКТРАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ  
МАТЕРИАЛОВ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ ЗЕМЛИ ПРИ  
ПОИСКАХ ЗОН ОРУДЕНЕНИЙ  
(НА ПРИМЕРЕ ПЛОЩАДИ ДЕРБЕЗ-КОКПАТАС)**

**04.00.03 – Геотектоника и геодинамика. Петрология и литология**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD)  
ПО ГЕОЛОГО-МИНЕРАЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022/2PhD/GM128.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.ingeo.uz](http://www.ingeo.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** **Нурходжаев Анварбек Кораходжаевич**  
доктор геолого-минералогических наук

**Официальные оппоненты:** **Разигов Одил Тахирджанович**  
доктор геолого-минералогических наук

**Асадов Акмал Рузимуродович**  
кандидат геолого-минералогических наук

**Ведущая организация:** **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится «29» ноября 2024 года, в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 при Институте геологии и геофизики имени Х.М.Абдуллаева (Адрес: 100041, г. Ташкент, ул.Олимлар, 64.Тел: (99871) 262-65-16; факс: (99871) 262-63-81; e-mail: [ingeo@ingeo.uz](mailto:ingeo@ingeo.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института геологии и геофизики имени Х.М.Абдуллаева (регистрационный номер № 21). Адрес: 100041, г.Ташкент, ул. Олимлар, 64. Тел.: (99871) 262-65-16.

Автореферат диссертации разослан «29» ноября 2024 г.  
(реестр протокола рассылки № 21 от «29» ноября 2024 г).

**Х.Д.Ишбаев**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.г.-м.н., профессор

**Э.М.Амиров**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.ф.г.-м.н.(PhD)

**П.С.Султонов**

Председатель научного семинара при научном  
совете по присуждению ученых степеней, д.г.-м.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ

